

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

«NEFT VA GAZ» FAKULTETI
«TEXNOLOGIK JARAYONLARNI AVTOMATLASHTIRISH VA BOSHQARISH»
KAFEDRASI

Tangirov Jasurbek Mixli o‘g‘li

**« Sho‘rtan gaz kimyo majmuasida nordon gazlarni desorbsiyalash jarayonini
avtomatlashtirish » mavzuli**

5311000 - «Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (kimyo,
neft-kimyo va oziq-ovqat sanoati)»

yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Kafedra mudiri

A.X.Jo‘rayev

Rahbar

B.Ibragimov

Qarshi – 2018 y.

KIRISH**I. BOB** ISHLAB CHIQUARISH OBYEKTINING UMUMIY TAVSIFI ..

- 1.1. Texnologik jarayonning vazifasi
- 1.2. Massa almashinish jarayonlari. Absorbsiya, desorbsiya jarayoni fizik xossalari va konstruksiyalari
- 1.3. Tabiiy gazni amin bilan tozalash (700 zona) texnologik jarayonning bayoni va kimyoviy mexanizmi
- 1.4. Nordon (kislotali) komponentlarni absorbsiyalash va desorbsiyalash bo‘limi tavsifi

II. BOB SHO‘RTAN GAZ KIMYO MAJMUASIDA NORDON GAZLARNI DESORBSIYALASH JARAYONINI AVTOMATLASHTIRISH ...

- 2.1. Absorbsiya va desorbsiya qurilmalari boshqarish obyekti sifatida
.....
- 2.2. Nordon gazlarni desorbsiyalash jarayonini rostdashning xisobi
.....
- 2.3. Nordon gazlarni desorbsiyalash jarayonini avtomatlashtirish-ning funksional sxemasi
.....
- 2.4. Nordon gazlarni desorbsiyalash jarayonini avtomatik nazorat qilish va rostdash qurilmalariga buyurtma SPETSIFIKATSIYasi
.....
- 2.5. Ishlab chiqarish jarayonining elekt ta’minot sxemasi

HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI

TEXNIK-IQTISODIY HISOB

ATROF-MUHIT MUHOFAZASI.....

XULOSA.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

KIRISH

Mamlakatimizning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi kimyo sanoati yo‘nalishlariga mos ravishda jadal suratlar bilan, ayniqsa xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarini mahalliy xom-ashyo va materiallar bilan ta‘minlovchi texnika taraqqiyoti rivojlanib bormoqda.

Yaqindagina ishga tushirilgan SHO‘rtangaz kimyo majmuasidan tashqari, O‘zbekistonda tannarxi 200 mln. AQSH dollari bo‘lgan “Navoiyazot” ishlab chiqarish birlashmasi qoshida polivinilxlorid (PVX) ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Bu esa respublikamizda polimer materiallariga, ayniqsa PVX ga bo‘lgan talabni yuqori ekanligidan darak beradi.

Keyingi o‘n yilda, ya‘ni 2000 yilga nisbatan taqqoslanganda, 2010 yilda mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot qariyb ikki barobar, aholi jon boshiga hisoblaganda esa 1,7 barobar oshdi.

Ayni paytda biz o‘z vaqtida tanlab olgan iqtisodiy taraqqiyot modelining naqadar to‘g‘ri ekanini va amalda o‘zini to‘la oqlaganini hayotning o‘zi yana va yana tasdiqlab bermoqda.

“2011-2015 yillarda O‘zbekiston sanoatini rivojlantirishning ustivor yo‘nalishlari to‘g‘risida” gi dastur tasdiqlandi. Ushbu dastur sanoat sohasida umumiy qiymati qariyb 50 milliard dollarni tashkil etadigan 500 dan ortiq yirik investitsiya loyihasini amalga oshirishni ko‘zda tutadi.

Yaqin 5 yil ichida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini kamida 60% ga oshirish, yalpi ichki mahsulotda uning ulushini 2010 yildagi 24% dan 2015 yilda 28% ga ko‘paytirishni ta‘minlash vazifasi qo‘yilmoqda. Bu borada mashinasozlik, avtomobilsozlik, kimyo, oziq-ovqat, farmatsevtika, qurilish materiallari sanoati va boshqa sohalarni jadal rivojlantirish hisobidan ushbu tarmoqlarda 2 barobardan ziyod o‘shishga erishildi.

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini jadal yangilash biz uchun eng muhim ustivor vazifa sifida izchil davom ettiriladi.

Bu xususda gapirganda, 2011 yilda iqtisodiyotga jalb etiladigan barcha investitsiyalarning 36,4% dan ortig‘ini sanoatni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash dasturlarini amalga oshirishga yo‘naltirish ko‘zda tutilayotgani, zamonaviy asbob-uskunalar xarid qilish xarajatlari umumiy kapital qo‘yilmalar hajmining kamida 46% ini tashkil etayotganini qayd etish darkor.

2011 yilda 35 tadan ortiq yirik ishlab chiqarish korxonasini qurishni yakunlash va foydalanishga topshirish vazifasi qo‘yilmoqda. Shular qatorida ko‘p o‘rinli “Mercedes-Bens” yo‘lovchi avtobuslarni ishlab chiqarishni o‘zlashtirish, Muborak gazni qayta ishlash zavodi va “SHo‘rtanneftgaz” unitar shu‘ba korxonasida 400 ming tonna suyultirilgan gaz va gaz kondensati ishlab chiqariladigan qurilmalarni o‘rnatish, Olmaliq va Navoiy kombinatlarining korxona va ishlab chiqarish quvvatlarini texnik qayta jihozlash, Bekobod metallurgiya kombinatini modernizatsiya qilish va boshqa o‘ta muhim loyihalarni amalga oshirish ko‘zda tutilmoqda.

Joriy yilning oxiriga qadar, idoraviy mansubligidan qat‘i nazar, barcha yirik korxona va ishlab chiqarish quvvatlarida jahon tajribasida sinovdan o‘tgan zamonaviy texnologiyalar bilan almashtirilishi lozim bo‘lgan uskuna va texnologiyalarning ro‘yxatini aniqlash uchun texnik audit o‘tkazish zarur.

Navbatdagi eng ustivor vazifa - bu mamlakatimizni modernizatsiya qilish va aholi bandligini oshirishning muhim omili sifatida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirishdan iborat.

Mavzuni dolzarbligi va uni texnik-iqtisodiy jihatdan asoslash

Mening bitiruv malakaviy ishim mavzusi ““Шўртан газ кимё мажмуаси” МЧЖда порошоксимон поливинилхлорид ишлаб чиқариш линиясини автоматлаштириш” deb nomlanadi. Bizga ma‘lumki, hozirgi kunda polimer mahsulotlariga, jumladan polivinilxlorid (PVX) asosida ishlab chiqariladigan materiallarga bo‘lgan talab kundan-kunga oshib bormoqda.

PVX smolasini Rossiya va boshqa davlatlardan sotib olinishi esa mahsulot tannarxining yanada oshishiga olib kelar edi. Shu sababga ko‘ra ko‘pgina PVX ni qayta ishlaydigan korxonalar o‘z ish faoliyatini to‘xtatishga majbur bo‘lgan edi. Endilikda Navoiy viloyati va Qashqadaryo viloyatlarida qurilishi boshlanayotgan PVX smolasi ishlab chiqaradigan yirik sanoat korxonalari o‘zimizning mahalliy xom-ashyolar asosida ishlaydi. Arzon mahalliy xom-ashyo esa bu gazdir.

PVX smolasi ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgandan so‘ng uni qayta ishlaydigan korxonalar ham o‘z-o‘zidan ko‘payishi tayin. Demak, oxirgi damlargacha ishlab kelgan PVX ni qayta ishlash korxonalarining texnologik liniyalarini modernizatsiya qilib, ularni zudlik bilan takomillashtirish kerak. Ular ishga shay bo‘lib turishlari kerak. Shu muammolarni yechimiga qaratilgan men tanlagan bitiruv malakaviy ishim mavzusi ham shubhasiz shu kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Mavzuni tanlashda men ishlab chiqarish korxonalaridagi malakaviy amaliyotlarni o‘tash vaqtida to‘plagan materiallarim, olgan nazariy bilimlarim va boshqalarga tayandim.

“SHo‘rtangazkimyo” majmuasi tomonidan PVX smolasi ishlab chiqarilishi yo‘lga qo‘yilgach, u asosida turli xildagi kompozitsion polimer materiallari, shuningdek ularning tarkibiga qo‘shiladigan qo‘shimchalar ham ishlab chiqariladi.

Men o‘z bitiruv malakaviy ishimda suspenszion usulda ishlab chiqarilgan PVX S-5859 asosida poroshoksimon PVX kompozitsiyasini ishlab chiqarishda qo‘shimchalar qo‘shish bo‘limini avtomatlashtirishni loyihalashda “SHo‘rtangazkimyo” majmuasining janubiy-g‘arb tomonidan loyihalashni tavsiya etaman. Chunki loyihalashga muljallangan joy xom-ashyo bazasi (“SHo‘rtangazkimyo” majmuasi) dan 4 km uzoqda joylashadi.

Texnologik liniyaning normal ishlashi uchun esa barcha zaruriy narsalar mavjud: xom-ashyo, elektroenergiya, suv, avtotransport yuradigan yo‘l, temir yo‘l, siqilgan havo bilan ta‘minlaydigan kompressor zavodi va boshqalar juda yaqinda joylashgan.

Hududning relyefi bir tekis, iqlimi tez o‘zgaruvchandir. Yozning issiq kunlarida havoning o‘rtacha harorati 40-42⁰C ni, qish faslida esa sovuq havoning harorati -0,9⁰ ni tashkil etadi. Yozning jazirama issiq kunlarida havoning harorati 45-46⁰S gacha ko‘tariladi. Shamolning yillik o‘rtacha esishi 4,5 m/s ni, yillik yog‘ingarchilik miqdori esa 256 mm ni tashkil etadi. Ishlab chiqarish uchastkasi hududida shamolning o‘rtacha esishi (%) quyidagi jadvalda keltirilgan:

1-jadval

Shimol	Shimoliy sharq	Sharq	Janubiy sharq	Janub	Janubiy g‘arb	G‘arb	Shimoliy g‘arb
22	19	17	7	19	11	14	21

Xulosa qilib aytganda, suspenszion usulda ishlab chiqarilgan PVX S-5859 asosida poroshoksimon PVX kompozitsiyasini ishlab chiqarishda qo‘shimchalar qo‘shish bo‘limini avtomatlashtirishni loyihalash va takomillashtirish uchun barcha texnik-iqtisodiy sharoitlar mavjud deb hisoblayman.

I- BOB. ISHLAB CHIQARISHNING UMUMIY TAVSIFI

1.1. POLIMERLARNI SINTEZ QILISHNING TEXNOLOGIK USULLARI

Texnikada polimerlarni sintez qilishning uch xil usuli, ya'ni massada polimerlanish, erituvchi muhitida polimerlanish va emulsion polimerlanish usullari keng tarqalgan.

Massada polimerlanish usuli (blok usuli)

Suyuq holdagi monomerlarni hech qanday erituvchisiz o'z holida polimerlanish usuli massada polimerlanish deyiladi. Bu usulda yaxlit va qattiq polimer bloki hosil bo'ladi, uning shakli esa reaksiya olib borilgan idishning shakliga kiradi.

Odatda, massada polimerlanish reaksiyasi, ko'pincha organik peroksidlar ishtirokida, qisman, issiqlik va nur ta'sirida olib boriladi.

Bu usulning asosiy kamchiligi shundaki, bunda reaksiya natijasida ajralib chiqayotgan issiqlikni hosil bo'lgan polimer blokidan o'z vaqtida yo'qotish qiyin. Buning natijasida polimerlanish reaksiyasi sistemaning har xil nuqtalarida turli harorat va turlicha tezlik bilan davom etadi. Haroratning haddan tashqari ortib boishi, ayniqsa, idishning o'rta qismida polimer zanjirlarini destruksiyalaydi (parchalaydi) va ularning o'rtacha molekula massasini kamaytiradi.

Usulning yana bir kamchiligi shuki, reaksiya natijasida hosil bo'lgan qattiq va yaxlit polimer namunalarini ajratib olish hamda ularni qayta ishlab buyum olish anchagina texnologik jarayonlarni qo'llashni talab qiladi. Shuning uchun ham blok usulidan polimerni qayta ishlash talab qilinmaydigan hollardagina foydalaniladi.

Jumladan, metilmetakrilatdan polimetilmetakrilat (organik shisha) olishda, stirolni polistiroлга aylantirishda bu usul qo'llaniladi. Masalan, samolyotsozlikda ko'p qo'llaniladigan material - organik shisha massada polimerlash usuli bilan hosil qilinadi.

Erituvchi muhitida polimerlanish

Erituvchi muhitida polimerlanish ikki xil bo'ladi. Birinchi usulda olingan erituvchida monomer ham va hosil bo'ladigan polimer ham yaxshi eriydi (lok usuli).

Ikkinchi usulda, olingan erituvchida monomer eriydi, ammo hosil bo'lgan polimer erimaydi va, natijada, polimer cho'kmaga tushadi.

Erituvchi muhitida olib boriladigan polimerlanish jarayonida haroratni rostlash imkoniyati bor. Shunday bo'lsa ham, amalda bu usul unchalik ko'p ishlatilmaydi, chunki birinchidan, bunda erituvchi molekulalari reaksiyada qatnashib, zanjirning tez uzilishiga yoki aktiv markazni uzatilishiga olib keladi. Natijada hosil bo'lgan polimerning o'rtacha molekula massasi kamayadi. Ikkinchidan, hosil bo'lgan polimer tarkibidan erituvchi moddani yo'qotish ancha qiyin.

Emulsion polimerlanish

Bu usul sintetik polimerlar sanoatida ko'p qo'llaniladigan usuldir. Uning afzalligi shundaki, emulsion polimerlanish reaksiyasi past haroratda ham katta tezlik bilan boraveradi.

Hosil bo'lgan polimer molekulaviy taqsimlanishi boshqa usullar bilan olingandagiga qaraganda monodispersroq bo'ladi. Bunday polimerlanish jarayonida dispersion muhit sifatida, asosan, suv ishlatilib, unda monomerning 7-50%-li emulsiyasi tayyorlanadi. Monomerning suvdagi emulsiyasini barqaror qilish uchun unga emulgatorlar qo'shiladi.

Monomerning suvdagi emulsion zarrachalari shakliga va kattaligiga qarab sistema lateks yoki suspensiy bo'ladi. Emulgatorlar sifatida deyarli barcha sovunlar, jumladan ishqoriy metallarning oleat, palmitat, laurat tuzlari, aromatik sulfokislotalarning natriyli tuzi, ayniqsa, natriyizobutilnaftalin monosulfat ko'p ishlatiladi. Emulgatorlar uglevodorod (monomer) bilan suv chegarasidagi sirt taranglik kuchini kamaytiradi va monomerning suvda emulsiyalanishini osonlashtiradi. Monomer tomchilarini yupqa emulgator pardalar bilan o'ralishi emulsiyaning barqarorligini oshiradi.

Emulsion polimerlanishning initsiatorlari sifatida suvda eruvchan persulfat, perborat, vodorod peroksid va shunga o'xshash moddalar ishlatiladi. Jarayonning regulatori sifatida (ya'ni muhitning rN turg'unligini va emulsiyaning barqarorligini oshiruvchi moddalar sifatida) bikarbonatlar, fosfatlar va atsetat tuzlari ishlatiladi. Yuqorida aytib o'tilganlarga binoan, polimerlanishdan avval monomerning suvdagi emulsiyasi hosil qilinadi. So'ngra polimerlanish natijasida polimer lateksi hosil bo'ladi. Latekslar texnikada to'g'ridan-to'g'ri ishlatilishi ham mumkin (PVA ning suvdagi emulsiyasi). Lateksdan polimerni ajratib olish uchun unga maxsus moddalar - elektrolitlar qo'shiladi.

Emulsion polimerlanish usulining ikkinchi turi suspensiyalar polimerlanish deyilib, lateks polimerlanish usulidan hosil bo'ladigan polimer zarrachalarining yirikligi bilan farqlanadi. Bunday reaksiyalarda initsiator sifatida ishlatiladigan benzoil peroksid va diazobirikmalar ayni monomerda eritilgan holda ishlatiladi. Suspensiyaning barqarorligini oshirish uchun suvda eruvchan stabilizatorlar, jumladan, polivinil spirti yoki jelatina qo'llaniladi.

1.2. PVX ISHLAB CHIQUARISHNING SANOAT USULLARI

Yuqori molekulyar galogensaqlovchi uglevodorodlardan polivinilxlorid, politetraftoretlen, poliuchftorxloretilen, polivinilftorid, polivinilidenftorid, poliperftorpropilen va ularning sopolimerlari katta ahamiyatga ega. Bu polimerlar ichida hozirgi kunda ishlab chiqarilish hajmi bo'yicha ikkinchi o'rinda turgan polivinilxloridni o'rni alohida.

Polivinilxlorid

Polivinilxlorid (PVX) $[-CH_2-CHCl-]_n$ elementar halqasi asosan "bosh dumcha" xilida birikkan, xlor saqlovchi yuqori molekulyar birikmadir.

Polivinilxlorid shishalanish harorati 70-80°S, qovushqoq oquvchan holga o'tish harorati 150-200°S (molekula massasiga qarab) bo'lgan termoplastik polimer. Sanoatda ishlab chiqarilayotgan PVX ning polimerlanish darajasi 400 dan 1500 gacha o'zgaradi.

Polivinilxloridning xususiyatlari va ishlatilish sohasi, uni ishlab chiqarish usuliga katta bog'liq. PVX ning hossalari kimyoviy modifikatsiyalab ham o'zgartirish mumkin. Xom ashyoning mo'lligi, polimer olishni oson usularini mavjudligi, qimmatli hossalari PVXni ishlab chiqarishni rivojlanishiga va ko'plab ishlab chiqarilishiga sabab bo'ldi.

Polivinilxlorid asosidagi plastik massalar elektr texnikasida, kimyo sanoatida, qurilishda ko'plab ishlatiladi.

Polivinilxlorid barcha texnologik usullarda ishlab chiqarilishi mumkin. Ammo sanoatda asosan suspensiya va emulsiyada ishlab chiqarish keng tarqalgan.

Polivinilxloridni suspensiyada ishlab chiqarish

Bu usul bilan hozirgi vaqtda salkam 70% polivinilxlorid ishlab chiqariladi. Polimerlanish 20-200 m³ hajmli impeller tipidagi aralashtirgich bilan jihozlangan reaktorlarda o'tkaziladi. Hajmi 50 m³ gacha bo'lgan reaktorlarni ichi emallangan, yoki zanglamaydigan maxsus po'latdan yasalgan bo'ladi. Katta hajmdagi 80-200 m³ reaktorlar, issiqlikni oson olib chiqib ketish maqsadida, qaytar sovutgichlar bilan jihozlangan bo'ladi. Jarayon EHM yordamida boshqariladi. Reaktorlar ishini unumini oshirish maqsadida, uzluksiz ishlaydigan, unumdorligi 10 t/soat bo'lgan, ikki pog'onali quvur-quritgich tipidagi quritish agregatlari yaratilgan.

Suspensiya barqarorlovchisi sifatida metilsellyuloza, oksietilsellyuloza, vinil spirtini vinilatsetat bilan sopolimerlari ishlatiladi.

Initiator sifatida vinilxloridni massada polimerlash initsiatorlari hamda lauril peroksidi, benzoil peroksidi ishlatiladi.

Muhitni rN ini doimiy ushlab turish maqsadida polimerlanishda bufer qo'shimchalar (suvda eruvchi karbonatlar, fosfatlar, gidroksidlar) ishlatiladi.

Suspensiyada polivinilxlorid uzlukli yoki yarim uzluksiz usullarda olinadi. Vinilxloridni suspensiyada polimerlashni namunaviy andozasi quyidagicha (mass. qismlarda):

	2-jadval
Vinilxlorid.....	100
Demineralangan suv.....	150-200
Initiator.....	0.03-0.17
Barqarorlovchi.....	0.03-0.08
rN rostlagich.....	0.01-0.4

1-Rasm. Polivinilxloridni suspenziyada uzluksiz usulda ishlab chiqarish jarayonining sxemasi:

1-polimerlovchi reaktorlar; 2-barqarorlovchi eritmasi uchun idish; 3-filtr; 4-po'stloq shilgich; 5-suspenziyani gazdan tozalagich; 6-suspenziyani yig'ib o'rtacha xolga keltiruvchi idish; 7-sentrifuga; 8-quritgich; 9-bunker; 10-kukunli elash bo'limi.

Suvni monomerga nisbati 1.5:1 dan 2.0:1 gacha o'zgaradi. Suspenziyada PVX olishning texnologiyasi (rasm 1.), xom ashyolarni tayyorlash, vinilxloridni polimerlash, suspenziyani gazzislantirish (degazatsiya), suspenziyani o'rtacha holga keltirish, sentrifugalash, polimerni quritish, elaklash, qadoqlash, polimerlanmagan vinilxloridni rekuperatsiyalash, oqova suvlarni hamda gaz chiqindilarini tozalash kabi jarayonlardan iborat.

Xom-ashyoni tayyorlash vinilxloridni tozalash, suvni ionitlar yordamida tuzsizlantirish, initsiatorni monomerda eritish va suspenziya barqarorlovchisini suvda eritishdan iborat.

Reaksiya muhitini isitish va sovutish uchun qobiq hamda aralashtirgich bilan jihozlangan polimerlovchi-reaktorga hisoblagich yoki tortuvchi o'lchagich orqali mineralsizlantirilgan suv, 2chi idishdan 3chi filtr orqali barqarorlovchi eritmasi hamda initsiator eritmasi quyiladi. So'ngra reaksiya muhitida vakuum hosil qilinadi yoki azot bilan havosi siqib chiqariladi va doimiy aralashtirilib turib suyuq vinilxlorid uzatiladi. Komponentlarni solib bo'linganidan so'ng reaktor qobig'iga berilgan haroratgacha isitish maqsadida issiq suv yuboriladi. Polimerlanish 45-70°S harorat va 0.5-1.4 MPa bosimda 5-10 soat davom etadi. Bunda monomerni konversiyasi 80-90% ni tashkil etadi. Polimerlanish jarayoni reaktorda bosim 0.05-0.2 MPa gacha pasayganida tugatiladi. Reaksiyaga kirishmagan vinilxlorid avvaliga puflab, keyin esa vakuum hosil qilib reaktordan gazgolderga o'tkaziladi va regenirlashga jo'natiladi. Regenirlangan vinilxlorid yana polimerlanishga jo'natiladi. Polivinilxlorid suspenziyasi po'stloq ajratgich (4) orqali 5chi apparatga, reaksiyaga kirishmagan vinilxlorid, vodorod xlorid va boshqa qo'shimcha moddalardan ajratish uchun uzatiladi. Vinilxlorid bu yerdan ham gazgolder orqali regenirlashga tushadi.

So'ngra suspenziya yig'uvchi-o'rtacha holga keltiruvchi idishga (6) o'tkaziladi. Bu idishga boshqa jarayonlarni o'tgan suspenziyalar ham solinib hammasi o'rtacha holga keltirilgach, suspenziyadan polimerni ajratish maqsadida 7chi sentrifugaga uzatiladi. Filtrdan o'tgan suyuqlik oqava suvlarni tozalashga jo'natiladi. Kukunsimon polimer 20-30% namlik bilan 8chi quritgichga o'tkaziladi. Qaynash qavatida quritishda, quritgichga kirayotgan havo harorati 115-120°S, qaynash qavatining turli nuqtalarida 35-65°S bo'ladi. Quritilgan polimer tarkibida namlik 0.3-0.5% dan ortiq bo'lmasligi kerak. So'ngra kukunsimon polimer siqilgan havo yordamida 9chi idishga, undan elash uchun 10chi idishga uzatiladi. Tayyor polivinilxlorid kukun ko'rinishida qadoqlanadi, yirikroq fraksiyasi esa maydalashga jo'natiladi.

Polivinilxloridni emulsiyada ishlab chiqarish

Vinilxloridni emulsiyada (lateksda) polimerlash suv muhitida, suvda eruvchi initsiatorlar, emulgatorlar va boshqa qo'shimchalar ishtirokida o'tkaziladi.

Emulgator sifatida sirt-faol moddalar - turli xil sovunlar ishlatiladi (alifatik va aromatik karbon kislotalarning tuzlari, alifatik sulfokislotalarning natriyli va kaliyli tuzlari, alkilsulfonatlar).

Polimerlanish initsiatorlari sifatida suvda eruvchi peroksid va gidrooksidlar (ammoniy, kaliy, natriy persulfatlari, vodorod peroksidi), oksidlanish-qaytarilish sistemalari ishlatiladi.

Muhit rN ini rostlagichlari sifatida bufer moddalar - fosfatlar, karbonatlar ishlatiladi.

Emulsiyada polimerlanish natijasida zarrachalari 0.1 dan 1 mkm kattalikka ega lateks hosil bo'ladi; lateksdan polimer mayda kukun ko'rinishida ajratib olinadi.

Emulsion polivinilxlorid olishning texnologiyasi (rasm 9) xom ashyoni tayyorlash (emulgator va initsiator eritmalarini tayyorlab olish), vinilxloridni polimerlash, lateksdan gazlarni chiqarib yuborish, lateksni neytrallashtirish va barqarorlashtirish, polivinilxloridni lateksdan ajratib olish, polimerni quritish va qadoqlash kabi jarayonlardan tashkil topgan.

2-Rasm. Polivinilxloridni emulsiyada ishlab chiqarish jarayonining sxemasi:

1- emulgatorni eritish apparati; 2,5,12-filtrlar; 3-suv fazasi yig'ilish idishi; 4-polimerlanish o'tkazish apparati; 6-lateksni gazzsizlantiruvchi idish; 7-lateksni yig'ish idishi; 8-soda erituvchisi; 9-soda eritmasini yig'ish idishi; 10-lateksni barqarorlash idishi; 11-vakuum nasos.

3-jadval

Emulsiyada polimerlashni namunaviy andozasi quyidagichadir (mass. qismlarda)

Vinilxlorid.....	100
Mineralsizlantirilgan suv.....	150-200
Initsiator.....	0.5-1.0
Emulgator.....	1.5-2.0
rN ni rostlovchi.....	0.2-0.5

Emallangan 4chi reaktorga (kurakli aralashtirgich, isitish va sovutish qobig'i bilan jihozlangan vertikal silindr ko'rinishidagi) uzluksiz suyuq vinilxlorid, emulgator, initsiator va bufer moddasini suvdagi eritmasi tushirib turiladi. Reaktorni yuqori qismida katta kurakli aralashtirgich yordamida monomerni suvdagi emulsiyasi hosil qilinadi. Emulsiya pastga tushgani sari 40-60°C da 92-95% monomer polimerlanadi. Polimerlanish bitta yoki bir-biri bilan ketma-ket biriktirilgan ikkita reaktorda amalga oshiriladi. Reaksiyada ajralib chiqqan issiqlik qobiq orqali olib chiqiladi. Vinilxloridni suvga bo'lgan nisbati 1:1 dan 1:2 gacha bo'ladi.

Polimerlanish jarayoni emulsiyaning zichligi va avtoklavdagi reaksiya muhitining harorati yordamida nazorat qilinadi. Polimerlanish to'g'ri amalga oshirilganda reaktordan chiqayotgan emulsiyaning zichligi 1120 kg/m³ ga teng bo'ladi.

Polivinilxloridning miqdori 42% gacha bo'lgan lateks 5chi filtr orqali 6chi gazzsizlantirgichga uzatiladi. Monomer qoldig'ini lateksdan vakuum hosil qilish orqali ajratiladi. Ajratilgan vinilxlorid gazzgolderga jo'natiladi. Gazzsizlantirgich (6) dan lateks 7chi yig'uvchi idishga, u yerdan nasos yordamida 10chi idishga soda eritmasi yordamida barqarorlashtirish uchun uzatiladi. Barqarorlashtirilgan lateks purkab quritiladigan quritgichga quritish uchun yo'naltiriladi. Quruq polimer kukuni (0.35% namlik bilan) maxsus mashinalarda qadoqlanadi.

Lateksni o'zi ham tayyor maxsulot sifatida ishlatilishi mumkin. 40-50% polimer saqlagan polivinilxlorid latekslari matolarni, terini, qog'ozni va boshqa materiallar yuzasini pardozlash hamda ularni shimdirishda ishlatiladi.

Emulsiyada olingan polivinilxloridni asosiy kamchiligi uni xar xil modda qoldiqlari bilan ifloslanganligi hisoblanadi. Shuning natijasida emulsiyada olingan PVX ni kul hosil qilishi 0.3-0.5% bo'lib, bu kattalik suspenszion PVX ning kul hosil qilishidan (0.03-0.08%) ancha katta. Undan tashqari emulsion PVX 5% gacha namlik yutsa, suspenszion PVX faqat 0.5% namlik yutadi. Bu kamchiliklar emulsion polimerni ishlatish soxalarini ancha chegaralab qo'yadi.

1.3. POLIVINILXLORIDNI XOSSALARI

Polivinilxlorid zichligi $1350-1460 \text{ kg/m}^3$ bo'lgan oq kukun ko'rinishida bo'ladi. Sanoatda ishlab chiqarilayotgan polivinilxloridlarni molekula massasi 30000-150000. Kristallik darajasi 10%.

Polimerlanish darajasini ortib borishi bilan bir qatorda PVX ning polidispersligi ham orta boradi.

Tarkibida ko'p xlor (56% ga yaqin) saqlaganligidan PVX alanganmaydi va yonmaydi hisob. Polivinilxlorid $130-150^\circ\text{C}$ da sekin-asta, 170°C da esa tez parchalanib, vodorod xlorid ajratib chiqaradi.

Polivinilxlorid monomerda, suvda, spirtida, benzinda va ko'pgina erituvchilarda erimaydi. Qizdirilganda u tetragidrofuranda, xlorlangan uglevodorodlarda, atsetonda eriydi. Oddiy sharoitda siklogeksanonda yaxshi eriydi.

Polivinilxlorid yaxshi elektr izolyatsiyasi hamda issiqlik o'tkazmaydigan xossalarga ega, u kuchli va kuchsiz kislota hamda ishqorlar ta'siriga, surkovchi moylar ta'siriga chidamli.

Issiqlik va mexanik ta'sirlar ostida polivinilxloridda degidroxlorlanish, oksidlanish, destruktitsiya, tikilish kabi jarayonlar ketadi. Polimerni o'z xossalarini yo'qotishiga olib keladigan asosiy reaksiya - HCl ni ajralib chiqishidir.

Parchalanishni oldini olish maqsadida polivinilxloridga barqarorlovchi moddalar qo'shiladi. Oksidlanishni oldini oluvchilar sifatida fenol va karbamidni turli xosilalari ishlatiladi.

Xona haroratida polivinilxlorid qattiq va mustahkam polimerdir. U turli xil plastifikatorlar bilan yaxshi aralashadi. Texnikada polivinilxlorid antikorrozion material sifatida ko'plab ishlatiladi. Yaxshi elektrdan izolyatsiyalash xossasi, uni kAbellar ishlab chiqarishda ko'plab ishlatilishiga sababdir.

1.4. PVX S-5859 ASOSIDA PVX KOMPOZITSIYASINI ISHLAB CHIQARISH

Xom- ashyoni tayyorlash va komponentlarni o'lchash (dozalash).

Poroshoksimon komponentlar: polivinilxlorid (PVX S-5859 markali va boshq.), Belgorod bo'ri, uch asosli qo'rg'oshin sulfati (TOSS), ikki asosli qo'rg'oshin stearati (DOSS), BMR-9-1 kompaundi.

Pastasimon komponentlar: stearin kislotasi, lubrikant K-11

Polivinilxlorid qog'ozdan ajratish uchastkasidan (poz.1) kompressor stansiyasining siqilgan havosi yordamida silosga (poz.2) kelib tushadi.

Ishchi retseptura tarkibidagi barcha komponentlar ikki bosqichli aralashtirgichning issiq qismiga (poz.8) kelib tushadi va yaxshilab aralashtiriladi. Aralashtirish jarayoni 30 – 35 minut davom etadi. Aralashtirishning birinchi bosqichida aralashtiruvchi elementning aylanish tezligi 750 ob/min. ni tashkil etadi. Aralashuvchi moddalarning harorati komponentlar zarrachalarining o'zaro bir-biri bilan va aralashtirgich devorlari bilan ishqalanishi natijasida ko'tariladi. Aralashmaning harorati $80 \pm 5^\circ\text{S}$ ga yetganda jarayon to'xtatiladi, ko'ylaksimon aralashtirgich 30 – 35°S gacha suv bilan sovutiladi. Shundan so'ng kompozitsiya siqilgan havo yordamida №014, №035 sitasi bo'lgan groxotga (poz.12) kelib tushadi. Groxot sitasidan utgan tayyor mahsulot maxsus konteynerlarga (poz.14) olinadi yoki siqilgan havo yordamida to'g'ridan-to'g'ri silosga (poz.3) yuboriladi.

3-rasm. PVX kompozitsiyasi ishlab chiqarish prinsipial texnologik sxemasi.

1-qog'ozdan ajratish qurilmasi; 2-PVX saqlanadigan silos; 3- Belgorod bo'ri saqlanadigan silos; 4- so'ruvchi nasos; 5- elektrokara; 6,7- Termostabilizatorlar qo'shiladigan uchastka; 8' - elektron-pnevmatik bunkerli tarozi; 8-issiqlik aralashtirgich; 9- sovuqlik aralashtirgich; 10-idish; 11- separator; 12- groxot; 13- maxsus idish; 14- konteyner; 15- sutkalik silos; 16- termostabilizatorlarni idishdan ajratish qurilmasi; 17- regenerat idishi

Kukunsimon komponentlardan bo'lgan termostabilizatorlar idishdan ajratish uchastkasidan (poz.16) elektrokara yordamida aralashtirish bo'limiga (poz.6,7) yuboriladi. Komponentlar (poz.6,7) zavod ishchi retsepturasiga muvofiq olinadi va elektron-pnevmatik bunkerli taroziga (poz.8') borib tushadi. Komponentlar tortib olingandan so'ng maxsus idishga (poz.13) kelib tushadi. Elektron-pnevmatik bunkerli tarozining hajmi 120 litr bo'lib, o'lchov imkoniyati 0-5 kg va 5-20 kg gacha.

Ishchi retsepturaga asosan termostabilizatorlar maxsus idishdan nasoslar yordamida o'lchash imkoniyati 10-150 kg bo'lgan so'ruvchi taroziga (poz.4) kelib tushadi. Kichik miqdorda qo'shiladigan komponentlar, ya'ni lubrikant K-11 va stearin kislotasi esa alohida elektron tarozida qo'l yordamida tortib olinadi va lentali transportyor bilan ikki bosqichli aralashtirgichga (poz.8,9) kelib tushadi. Belgilangan turdagi mahsulot uchun zavodning tasdiqlangan retsepturasi bo'yicha PVX kompozitsiyasi tarkibiga kiradigan barcha komponentlar ikki bosqichli issiq aralashtirgichga kelib tushadi. Kompozitsiya aralashmasining harorati komponentlar zarrachalarining o'zaro bir-biri va aralashtirgich devorlari bilan ishqalanishi hisobigiga oshib boradi. Boshlang'ich haroratni ushlash uchun esa aralashtirgichni oldindan qizdirish ko'zda tutilgan.

Aralashtirishning birinchi bosqichida aralashtiruvchi elementning aylanish tezligi past bo'lib, 2-3 minutdan so'ng oshirilgan tezlik bilan aylanadi. Aylanuvchi elementning tezligi 750 – 1500 айл/мин. ni tashkil etadi. Harorat $80 \pm 5^{\circ}\text{S}$ da aralashtirish jarayonini to'xtatmasdan turib stearin kislotasi va bo'yovchi modda (talab bo'yicha) qo'shiladi.

Issiq aralashtirgichning bir marta yuklanishi 150 kg ni tashkil etadi. Issiq aralashtirgich bir soat mobaynida 7 marta yuklanish imkoniyatiga ega, ya'ni uning ish unumdorligi 1050 kg/soat, hajmi esa 350 litrni tashkil etadi. Yuqori kamerada harorat $120 \pm 5^{\circ}\text{S}$ ga yetganda aralashma yuqori kameradan pastki sovuq kamera, ya'ni harorati $40 \pm 5^{\circ}\text{S}$ bo'lgan aralashtirgichga (poz.9) to'kiladi. Bu yerda suv sovutish agenti bo'lib xizmat qiladi. Jarayonni avtomatik rejimda ham boshqarish mumkin. Sovuq aralashtirgichning hajmi 1500 litr, ishchi organining aylanish tezligi esa 130 об/мин.

Sovutilgan kompozitsiya o'z navbatida aralashtirgichdan keyingi (poz.10) idishga kelib tushadi va u yerdan so'ruvchi nasoslar yordamida separatorga (poz.11) yuboriladi. Separatsiyadan so'ng kompozitsiya groxotga (poz.12) kelib tushadi va u yerdan maxsus idishga (poz.13) olinadi. Undan esa nasoslar orqali sutkalik siloslarga (poz.15) foydalanish uchun yuboriladi. Sutkalik siloslarda kompozitsiya tarkibini bir xilda ushlab turish uchun maxsus aralashtirgich o'rnatilgan. Sutkalik silosning hajmi 15m^3 ni tashkil etadi.

Groxot sitasidan o'tmay qolgan kompozitsiya (otsev) alohida konteynerga (poz.1) olinadi va maydalagichda maydalanadi. Maydalangan kompozitsiya nasos yordamida regenerat (poz.17) saqlanadigan idishga kelib tushadi va u yerdan birlamchi kompozitsiya tarkibiga 10-20% miqdorda qo'shib boriladi.

Yuqoridagi barcha texnologik jarayonlar masofadan turib avtomatik tarzda boshqariladi.

II-BOB. POROSHOKSIMON POLIVINILXLORID ISHLAB CHIQUARISH LINIYASINI AVTOMATLASHTIRISH TIZIMI XISOBI

2.1. PVX KOMPOZITSIYANING MUSTAXKAMLIK BA OQUVCHANLIK XOSSALARINI ANIQLASH

OLINGAN PVX KOMPOZITSIYALARINING PLASTOGRAMMALARI TAHLILI


Quyidagi 4-jadvalda turli tarkibga ega bo'lgan polimer kompozitsiyalarini ishlab chiqarishda an'anaviy retsepturaning o'zgartirilishi keltirilgan. Ushbu kompozitsiyalarning plastogrammalari Germaniyaning «Brabender» laboratoriya qurilmasida olingan bo'lib, ular quyidagi ko'rinishga ega:

An'anaviy retseptura plastogrammasida PVX kompozitsiyasining plastifikatsiya boshlanish vaqtidan to'liq plastifikatsiya vaqtigacha bo'lgan vaqt 17 minutni, «Brabender» shnekiga tushadigan yuklanish (nagruzka) plastifikatsiya boshlanish vaqtida 22% va to'liq plastifikatsiya vaqtida esa 59% ni tashkil etadi. Kompozitsiyaning 190⁰S dagi termik barqarorligi 45 minutni, qovushoq oquvchanlik ko'rsatkichi esa (PTR) 0,3 g/10 min. ni tashkil etadi.


4-jadval

PVX kompozitsiyasi texnologik xossalarining komponentlar miqdoriga bog'liqligi

№	Komponentlarning nomlanishi va ularning xossalari	Standart retseptura	1-variant, massa birligida	2-variant, massa birligida	3-variant, massa birligida	4-variant, massa birligida	5-variant, massa birligida	6-variant, massa birligida	7-variant, massa birligida
1	PVX S-5859	100	100	100	100	100	100	100	100
2	Belgorod bo'ri	3,86	3,86	1,93	1,0	3,86	3,86	3,86	3,86
3	TOSS	1,0	1,0	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5
4	BMR-9-1	2,0	1,0	2,0	1,5	1,5	1,0	0,5	-
5	Stearin kislotasi	0,15	0,15	0,15	0,15	-	-	-	-
6	DOSS	-	1,0	0,5	1,0	1,0	1,2	1,5	1,7
7	Lubrikant K-11	-	-	-	-	-	1,0	1,5	2,0
1	Plastifikatsiyalanish vaqti, min.	17	6	15	7	9	10	12	8
2	Qovushoq oquvchanlik ko'rsatkichi (PTR), g/10min.	0,3	0,2	0,1	0,1	0,15	0,2	0,25	0,3
3	190 ⁰ S dagi termik barqarorlik, min.	45	65	60	62	66	60	63	65



4 - rasm. An'anaviy retsepturaning plastogrammasi



5 - rasm. T-mahsulotining kalsiyli tuzi bilan stabillangan PVX kompozitsiyasining plastogrammasi. Konsentratsiya 1,0 %

1 variantga muvofiq (4-jadval) PVX kompozitsiyasi tarkibiga 1,0 massa birligida TOOS qo'shilganda va BMR-9-1 kompaundi esa 1,0 massa birligigacha kamaytirilgan. Bu holatda plastogramma quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi (5-rasm). Rasmdan ko'rinib turibdiki, plastifikatsiya vaqti 6 minutgacha kamayadi, bu esa elektr energiyasini sezilarli darajada iqtisod qilishga olib keladi. Qovushqoq oquvchanlik ko'rsatkichining (0,2 g/10min.) kamayganligi polimer makromolekulasi massasi va materialning fizik-mexanik mustahkamligini ortishiga, termik barqarorlikni esa 65 minutgacha oshishiga olib keldi. Olingan ko'rsatkichlar an'anaviy retseptura bilan taqqoslanganda ko'p tomonlama ustun ekanligi aniqlandi.

Kompozitsiyaning oquvchanlik (PTR) ko'rsatkichini aniqlash usullari

Oquvchanlik materialning ma'lum haroratda va bosim ostida oqib qolipni to'ldirish qobiliyatidir. Uni aniqlash uchun turli usullardan foydalaniladi.

Polimerlarning oquvchanlik darajasiga ko'ra buyumlarni presslash yoki quyish uchun kerakli solishtirma bosim topiladi. Solishtirma bosim oquvchanlikka teskari proporsional bo'lgan miqdordir. Oquvchanligi yuqori bo'lgan materiallar murakkab shakli va armaturali buyumlar olishda juda qulay hisoblanadi.

Plastmassalardagi oquvchanlik polimerlarning tabiatiga, to'ldiruvchining turiga va miqdoriga hamda plastifikator, moylovchi modda va boshqa qo'shimchalarning borligiga ham bog'liq.

Termoreaktiv pressmateriallarning oquvchanligi, Rossiya standarti bo'yicha "Rashig" press-qolipda olingan sterjenning uzunligini (mm) topishga asoslangan.

Termoreaktiv materiallarni qovushqoq oquvchan hossalari va qotish vaqtini Kanavsa-Seytlin metodi bilan ham aniqlash mumkin. Bu usullar qovushqoq oquvchan holatdagi materialning siljish kuchlanishi (napryajeniye sdvigom), qovushqoqlik oquvchanlik holati davomatligi, qotish vaqti, shuningdek ularni harorati siljish va siljish tezligiga bog'liqligini o'rganishga asoslangan.

Termoplastik polimerlarning oquvchanlik ko'rsatkichi suyuqlanma indeksi (PTR, MI) degan tushuncha bilan ifodalanadi.

Suyuqlanma oqishi ko'rsatkichi sifatida berilgan harorat va tegishli yuk bosimi 10 minut davomida soplodan o'tgan massa miqdori qabul qilingan va quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$i = 10 \cdot Q$$

Bu yerda: Q - oqib tushgan polimer miqdori; gramm

10 - siqib chiqarish vaqti; minut

